

## **Qozog‘iston Respublikasining Nur-Sulton shahridagi O‘zbekiston elchixonasining yangi binosi**

2010-yil 17-martda “O‘zbekiston Respublikasining Qozog‘iston Respublikasidagi va Qozog‘iston Respublikasining O‘zbekiston Respublikasidagi diplomatik vakolatxonalari binolarini qurish uchun o‘zaro yer uchastkalari berish to‘g‘risida”gi hukumatlararo bitim imzolangan edi. Unga muvofiq Nur Sulton shahrida, yangi barpo etilgan diplomatik shaharcha markazidan O‘zbekiston elchixonasi qurilishi uchun 2,6 gektar yer uchastkasi ajratildi.

2017-yil 16-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining Ostona shahridagi elchixonasi binolari majmuasini qurish va jihozlash bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 147-son qarori qabul qilingan bo‘lib, “O‘zshaharsozlikLITI” DUK loyihachi, “Trest-12” AJ bosh pudratchi, “Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi Diplomatik korpusga xizmat ko‘rsatish byurosi DUK“ buyurtmachi etib belgilangan.

Diplomatik vakolatxona hududida bosh bino, konsullik bo‘limi, xizmatchilar uchun turar joy binosi, diplomatik vakolatxona rahbarining qarorgohi, bolalar va sport maydonchalari joylashgan. Binoda majlis зал va konferentsiya zali mavjud. Alohida ehtiyojmand shaxslar uchun sharoitlar yaratilgan.

Ayni paytda qurilish ishlari yakunlanib, elchixonona yangi binoda ishlamoqda. Elchixonona binosining maydoni 3943,6 kv.m. bo‘lib, O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlar namunalari namoyish etilayotgan ko‘rgazma zalini o‘z ichiga oladi. O‘rnatilgan interaktiv uskunalarni onlayn ishbilarmonlik muzokaralarini olib borish, mahsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan tanishish imkonini beradi; milliy uslubda bezatilgan majlislar zali bir vaqtning o‘zida vazirlar darajasida uchtagacha muzokani o‘tkazish imkonini beradi; bir vaqtning o‘zida 70 kishigacha bo‘lgan ommaviy axborot vositalari, ishbilarmon doiralarni vakillari bilan brifinglar, biznes-forumlar hamda uchrashuvlar va boshqa tadbirlarni o‘tkazish imkoniyatiga ega konferentsiya zali; diplomatlarning farzandlariga, shuningdek, o‘zbek va qoraqalpoq tillarini o‘rganishni xohlovchi har bir kishiga O‘zbekiston tarixi bilan tanishish imkoniyatini beradigan kutubxona mavjud.

Elchixonada O‘zbekiston Mustaqillik kuni, Navro‘z va boshqa ijtimoiy-siyosiy tadbirlarni nishonlash uchun 500 nafargacha kishini qamrab olgan qabullar o‘tkazish imkoniyati mavjud.